

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGLARNING HUQUQIY MA'DANIYATINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI.

Qo'qon universiteti magistri
Holmatova Madina.

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kundagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining huquqiy madaniyat darajasi ularning kasbiy faoliyatda ya'ni tarbiyachi va uning ja'miyatda tutgan o'rni, pedagog tarbiyachi shaxsini shakllantirish va bola xuquqlarini himoya qilishlari, huquqiy ong va mas'uliyat darajasini oshirishlari bilan bevosita bog'liq hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Huquqiy ong, huquqiy madaniyat, bola huquqlari, mehnat huquqlar, huquqiy ta'lim, mehnat kodeksi, konstitutsiya, davlat dasturi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglarning huquqiy savodxonligini shakllantirish, huquqiy ma'daniyatni shakllantirishning muhim bosqichi hisoblanadi. MTT pedagoglarning huquqiy savodxonligi hamda huquqiy madaniyatini shakllantirish ular tarbiyalab kelayotgan yosh avlodni huquqiy ongli mas'uliyatli fuqarolar bo'lib yetishishiga zamin yaratadi. Shuning uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining huquqiy ma'daniyatini shakllantirish metodikasini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Pedagogning huquqlari davlat tomonidan amaldagi qonun hujjatlarda belgilab qo'yilgan. Unga ko'ra O'zbekiston Respublikasining [Pedagogning maqomi to'g'risida gi qonunga muvofiq](#) "O'zbekiston Respublikasida pedagogning maqomi tan olinadi. Pedagoglarning o'z kasbiy faoliyatini yuritishi uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, ularning ijtimoiy himoyasi ta'minlanadi va huquqlari amalga oshirilishi uchun kafolatlar beriladi. "Pedagogning huquqlari, sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'ladi." [3-modda].

Jamiyatdagi pedagog [tarbiyachi] birinchi navbatda o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalash , ikkinchidan mehnatkash halqimizga har tomonlama bilim berishdek mas'uliyatli vazifalarni bajaradi . Ustozning eng buyukli burchi – xalqqa nafi tegadigan , aql idrokli , uquvli shogirdlar tayyorlashdir , shuningdek pedagog o'z vazifalarini bajarish bilan birgalikda uning majburiyatlari ham bor. [O'RQ-901-son](#) muvofiq Pedagog o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda:

ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi;

o'quv mashg'ulotlarini o'quv dasturlari va davlat ta'lim standartlariga muvofiq sifatli o'tkazishi;

o'quv mashg'ulotlari davomida ta'lim oluvchilarning bilim darajasini oshirish uchun zarur choralar ko'rishi;

axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi;

ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi va ularni kamsitmasligi;

voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi;

o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi;

ta'lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta'sis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga va pedagogik etika qoidalariga rioya etishi;

majburiy tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart.

Pedagogning zimmasiga qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham yuklatilishi mumkin.

MTT pedagoglarini huquqiy bilimlarni egallashlari, huquqiy ong va mas'uliyat darajasini oshirishlari bilan bog'liq. Ushbu maqolada MTT pedagog hodimlarining huquqiy ma'daniyatini shakllantirish metodikasi, uning asosiy tamoyillari va amaliy yondashuvlari ko'rib chiqiladi.

Huquqiy ma'daniyat -bu shahsning huquqiy bilimlari ,huquqiy ong darajasi va huquqiy faoliyatida namoyon bo'ladigan axloqiy qadriyatlar yig'indisidir . Pedagoglarning huquqiy madaniyatini quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- 1) Bola huquqlari bo'yicha xalqaro va milliy huquqiy normalarni bilish;
- 2) Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining me'yoriy -huquqiy asoslarini tushunish;
- 3) Tarbiyachi faoliyatida huquqiy me'yorlarga amal qilish va ularni qo'llay bilish;
- 4) Bolalar va ota onalar bilan munosabatlarda huquqiy etikaga rioya qilish.


Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquq va majburiyatlari. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog xodimlari:

- kasbiy sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini himoya qilish;
- ijodiy tashabbus ko'rsatish, ta'lim va tarbiya uslubiyotlarini, o'quv qo'llanmalari hamda ta'lim vositalarini erkin tanlash;
- maktabgacha ta'lim tashkilotini boshqarishda ishtirok etish;
- maktabgacha ta'lim tashkilotining ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish;

pedagogik faoliyatidagi muvaffaqiyatlar uchun ma'naviy va moddiy rag'batlantirilish;

maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi ilmiy, innovatsion, xalqaro faoliyatda ishtirok etish huquqiga ega.

MTT pedagoglarida huquqiy ma'daniyatni oshirishda avvalo huquqiy savodxonlik masalasiga alohida yondashmog'imiz lozim . Shu jumladan MTT pedagoglari quyidagi asosiy huquqiy me'yoriy hujjatlarni o'rganib chiqishlari orqali huquqiy savodxonlik darajasini ma'lum darajada oshirishlari mumkun .



UNESCO VA UNICEF tadqiqotlari ,UNESCO va UNICEF bolalar va pedagoglar uchun huquqiy savodxonlik oshirish dasturlarini ishlab chiqqan . Ular quyidagi yo'nalishlarda ishlaydi .

1. Huquqiy ta'limni maktab va maktabgacha ta'lim dasturlariga integratsiya qilish
2. O'qituvchilar va tarbiyachilar uchun treninglar tashkil etish,
3. Huquqiy ongni oshirish bo'yicha interfaol metodlardan foydalanish .

Amerikalik olim John Dewey va ta'lim orqali huquqiy ongni shakllantirish . Amerikalik pedagog va tadqiqotchi John Dewey huquqiy ongni shakllantirishda ta'lim va tajriba asosiy omil ekanligini ta'kidlagan .Uning pragmatizm falsafasi va demokratik ta'lim tamoyillari huquqiy ma'daniyatni

rivojlantirishga ham katta ta'sir ko'rsatgan . John Deweyning g'oyalari shuni ko'rsatdiki , huquqiy ongni shakllantirishda faqat qonunlarni o'rganish yetarli emas . Bu jarayon quyidagi omillar orqali amalga oshmog'i lozim .

1. Tajribaga asoslangan ta'lim - real hayotiy vaziyatlar orqali huquqiy bilim berish
2. Demokratik muhit- fuqarolarni qonun yaratish jarayoniga jalb qilish.
3. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish - insonlarga huquqiy muammolarni mustaqil tahlil qilishni o'rgatish .
4. Jamiyat ta'lim institutlarining hamkorligi - huquqiy ma'daniyat oilada maktabda va ijtimoiy hayotda shakllanadi .

Deweyning fikrlari bugungi kunda ham huquqiy ongni va huquqiy ma'daniyatni oshirish bo'yicha innovatsion ta'lim metodologiyalarida qo'llanilmoqda .

Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarini huquqiy ma'daniyat kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi metodlar juda muhim ;

Seminar va treninglar tashkil etish

Case study(amaliy holatlar tahlili)

O'z o'zini rivojlantirish va huquqiy adabiyotlar o'qish

Huquqiy ma'lumot burchaklari va elektron resurslardan foydalanish

Xulosa. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog larining huquqiy ma'daniyatini shakllantirish nafaqat ularning o'z huquq va majburiyatlarini bilishlariga , balki bolalarning huquqlarini himoya qilishga ham xizmat qiladi . Samarali huquqiy metodikalarni qo'llash orqali pedagoglar o'z faoliyatida adolatli va qonuniy me'yorlarga rioya qilishadi hamda ta'lim tarbiya jarayonida huquqiy muhitni shakllantirishga hissa qo'shadilar .

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pedagogning maqomi to'g'risidagi qonun . (O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.02.2024 yildagi O'RQ-901-son) 3- moddasi
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 16.12.2019 yildagi O'RQ-595-son (7-bob 39-modda)

3. <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/learning-passport-launched-in-uzbekistan>
4. John Dewey Democracy and Education (1916) , Experience and Education (1938) <file:///C:/Users/user/Documents/democracy-and-education.htm>.
5. Maxmudova S. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI YOSHDAGI BOLALARGA XORJIY TIL (INGLIZ TILI) GA O'RGATISHDA "QUVNOQ BALIQCHALAR" DIDAKTIK O'YININI QO'LLASH SAMARASI. *Conference Proceedings: Fostering Your Research Spirit*, 37-40. <https://doi.org/10.2024/x0q1yq52>
6. Makhmudova Oybarchin. (2023). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE DEVELOPMENT OF VISUAL ACTIVITIES OF PRESCHOOL CHILDREN. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 8(8), 101–105. <https://doi.org/10.54613/ku.v8i8.815>
7. S.A.Maxmudova, & Qambarova, Y. (2024). NEYROGIMNASTIKANING MAKTABGACHA YOHDAGI BOLALAR RIVOJLANISHIGA TA'SIRI, O'RNII VA AHAMIYATI. *University Research Base*, 112–115. Retrieved from
8. Maxmudova, S. (2024). MAKATABGACHA YOSHDAGI BOLALAR BILAN LUG'AT ISHINI OLIB BORISHNING METODIK TIZIMINING QIYOSIY TAHLILI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 205–210. <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1057>
9. Oybarchin Makhmudova, . (2022). PROBLEMS OF TEACHING PRESCHOOL CHILDREN IN FINE ACTIVITIES. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(01), 17–21. <https://doi.org/10.37547/pedagogics-crjp-03-01-03>
10. Makhmudova, O. (2024). THEORETICAL VIEWS OF FINE ARTS AS A FACTOR OF INFLUENCE ON THE DEVELOPMENT OF A PRESCHOOL CHILD. *University Research Base*, 515–518. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/562>